



“OLIIY TA’LIMNI XALQAROLASHTIRISH” MILLIY
UNIVERSITET MAQOMI VA FAOLIYATIGA ZIDMI?



Diyorov Sardobek Husanboy o‘g‘li

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli

kadrlarni tayyorlash instituti

Boshqaruv ko‘nikmalari va yetakchilik mahoratini

rivojlantirish kafedrasi o‘qituvchisi,

sardorbek.diyorov.96@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’limni xalqarolashtirish jarayonining mohiyati va uning milliy universitetlar maqomi hamda faoliyati bilan o‘zaro munosabati qisqacha tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqarolashtirish milliy universitetlarning milliy vazifalariga zid jarayon emasligi, aksincha, ularning ta’lim sifati, ilmiy salohiyati va global akademik makondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik omil ekani nazariy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, oliy ta’limni xalqarolashtirish, milliy universitet, akademik mobillik, global akademik integratsiya, xalqaro hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность процесса интернационализации высшего образования и его взаимосвязь со статусом и деятельностью национальных университетов. В исследовании обосновывается, что интернационализация не является процессом, противоречащим национальным функциям университетов, а напротив, выступает важным стратегическим фактором повышения качества образования, научного потенциала и конкурентоспособности университетов в глобальном академическом пространстве.

Ключевые слова: Высшее образование, интернационализация высшего образования, национальный университет, академическая мобильность, глобальная академическая интеграция, международное сотрудничество.

Abstract. This article analyzes the essence of the internationalization of higher education and its relationship with the status and activities of national universities. The study argues that internationalization is not a process that contradicts the national functions of universities; rather, it serves as a strategic factor that enhances the quality of education, scientific potential, and the competitiveness of universities within the global academic environment.

Keywords: Higher education, internationalization of higher education, national university, academic mobility, global academic integration, international cooperation.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Kirish. Globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, innovatsion salohiyati va inson kapitalini shakllantirishda hal qiluvchi institutga aylanib bormoqda. Mazkur jarayonda oliy ta'limni xalqarolashtirish masalasi nafaqat ta'lim siyosati, balki milliy taraqqiyot strategiyalarining ham ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Xalqarolashtirish oliy ta'lim muassasalarining global bilimlar almashinuvi, akademik hamkorlik va ilmiy raqobat maydoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, ilmiy va ijtimoiy muhokamalarda xalqarolashtirish milliy universitetlarning maqomi va an'anaviy vazifalariga zid kelishi mumkinligi haqidagi qarashlar ham uchraydi. Bunday yondashuvlar xalqarolashtirishni milliylikdan voz kechish yoki milliy ta'lim modelining zaiflashuvi sifatida talqin qiladi. Biroq zamonaviy ilmiy adabiyotlar va yetakchi davlatlar tajribasi ushbu qarashlarning biryoqlama ekanini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – oliy ta'limni xalqarolashtirish milliy universitetlarning maqomi va faoliyatini inkor etmasligi, balki ularni zamonaviy global akademik makonga moslashtirish orqali mustahkamlashini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida xalqarolashtirish tushunchasining nazariy talqinlari tahlil qilinib, milliy universitetlarda uning amaliy namoyon bo'lish shakllari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Oliy ta'limni xalqarolashtirish tushunchasining nazariy talqini.

Ilmiy adabiyotlarda oliy ta'limni xalqarolashtirish murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida izohlanadi. Nayt xalqarolashtirishni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim, ilmiy-tadqiqot va boshqaruv faoliyatiga xalqaro hamda madaniyatlararo o'lchamlarni integratsiya qilish jarayoni sifatida ta'riflaydi[1]. Ushbu ta'rif xalqarolashtirishni muassasa ichki faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Altbax va Nayt esa xalqarolashtirishni universitetlarning global bilimlar makonidagi ishtirokini kuchaytiruvchi strategik mexanizm sifatida baholab, uni akademik mobillik, transmilliy ta'lim, ilmiy hamkorlik va institutsional raqobat bilan uzviy bog'laydi[2]. Ularning yondashuvida xalqarolashtirish universitetlarning jahon miqyosidagi o'rnini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur nazariy yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqarolashtirish milliy universitetlarning mohiyatini o'zgartirishga emas, balki ularning faoliyat doirasini kengaytirishga, ta'lim va ilm-fan sifatini oshirishga qaratilgan jarayondir. Shu bois, xalqarolashtirishni milliy universitetlar rivojlanishining tabiiy va zarur bosqichi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

“Milliy” va “xalqarolashtirish” tushunchalarining o'zaro uyg'unligi.

Milliy universitetlar oliy ta'lim tizimida mamlakatning milliy qadriyatlari, tili, madaniyati va ta'lim an'alariga asoslangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishni anglatadi. Milliylik ta'lim mazmunida milliy tarix, madaniy meros, milliy manfaatlar va davlat taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Shu jihatdan, har bir





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mamlakat o'z oliy ta'lim tizimini milliy ehtiyojlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablariga mos ravishda shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy bilimlar ishlab chiqarish va tarqatish jarayoni tobora global xarakter kasb etmoqda. Ilm-fan va innovatsiyalar milliy chegaralar bilan cheklanmaydi, bu esa universitetlardan ochiqlik va moslashuvchanlikni talab qiladi.

Mazkur sharoitda milliy universitetlarda xalqarolashtuv elementlarini paydo bo'lishi ularning milliy vazifalaridan voz kechishini emas, balki milliy manfaatlarni xalqaro akademik maydonda ilgari surish imkoniyatini yaratadi. Kem va Tayxler ta'kidlaganidek, xalqarolashtirish oliy ta'lim tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytiradi va milliy ta'lim modellarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[3].

Shunday qilib, "milliylik" va "xalqarolashtirish" tushunchalari o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki o'zaro uyg'unlik va to'ldiruvchanlik mavjud. Milliy universitetlar xalqarolashtirish orqali o'z milliy identitetini mustahkamlash va uni global miqyosda tanitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Milliy universitetlarda xalqarolashtirishning amalda namoyon bo'lishi.

Milliy universitetlarda xalqarolashtirish jarayoni bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, ta'lim jarayoniga xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarining joriy etilishi va xorijiy tillarda ta'lim berish amaliyotining kengayishi ushbu jarayonning muhim ko'rsatkichidir. Bu holat bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Ikkinchidan, talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik mobilligi xalqarolashtirishning asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro almashinuv dasturlari orqali milliy universitetlar akademik tajriba almashinuvi va ilg'or pedagogik amaliyotlarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatida xalqaro hamkorlikning rivojlanishi, qo'shma ilmiy loyihalar va nufuzli xalqaro jurnallarda nashrlar sonining ortishi milliy universitetlarning ilmiy salohiyatini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, xalqaro aloqalar bo'limlarining faoliyati, qo'shma diplom dasturlari va xalqaro reytinglar bilan ishlash xalqarolashtirishning institutsional asoslarini ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limni xalqarolashtirish milliy universitetlarning maqomi va faoliyatiga zid jarayon emas. Aksincha, u milliy universitetlarning ta'lim sifati va ilmiy salohiyatini oshirish, ularni global akademik makonga integratsiyalash hamda milliy manfaatlarni xalqaro miqyosda ilgari surishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu bois, xalqarolashtirish zamonaviy milliy universitetlar rivojlanishining muhim strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Knight, J. (1994). Internationalization: Elements and checkpoints. Canadian Bureau for International Education.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2. Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*.

3. Kehm, B. M., & Teichler, U. (2007). Research on internationalisation in higher education. *Journal of Studies in International Education*.

